



KASBIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYALANGAN INGLIZ TILI DARSLARI: CLIL TEXNOLOGIYASINING TEXNIKUM SHAROITIDAGI IMKONIYATLARI

Sattarova Dilafruz Bahramovna

Paxtaobod tumani 1-son politexnikumi

Ingliz tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17835956>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 30-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

CLIL, ESP, kasb-hunar ta'limi, integratsiyalashgan o'qitish, kasbiy ingliz tili, texnik kollejlari, til kompetensiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada texnik kasb-hunar kollejlarda ingliz tili o'qitishni mutaxassislik fanlari bilan integratsiya qilishning samaradorligi va pedagogik ahamiyati CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotda CLIL texnologiyasini qo'llashning didaktik asoslari, metodik strategiyalari va amaliy natijalari ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, CLIL asosidagi darslar talabalarning terminologiyani o'zlashtirishini kuchaytiradi, kasbiy kontekstda muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi, o'quv motivatsiyasini oshiradi hamda asosiy texnik fanlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Introduction. Bugungi kunda texnik kasb-hunar ta'limi tizimi talabalardan nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki xalqaro me'yorlarda kasbiy muloqot olib borish, texnik hujjatlarni tushunish va xorijiy manbalar bilan ishlash kompetensiyalarini ham talab qilmoqda. Shu sababli kasbiy fanlar bilan ingliz tili o'qitilishini integratsiyalash texnikumlar uchun dolzarb metodik yo'nalish hisoblanadi.

Texnikum talabalari nafaqat o'z kasbiy yo'nalishida puxta bilimga ega bo'lishni, balki ingliz tilida texnik matnlar, hujjatlar, ko'rsatmalar, xavfsizlik qoidalari va xalqaro standartlarni mustaqil o'qiy olish ko'nikmasini ham egallashni talab qiladi. Shu bois kasbiy fanlar bilan ingliz tilini integratsiya qilish zamonaviy kasb-hunar ta'limi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda CLIL (Content and language integrated learning) texnologiyasidan foydalanish texnikum sharoitida til va mazmunni o'zaro uyg'unlashtirgan holda o'qitish imkoniyatini yaratadi. CLIL mohiyatan ingliz tilini alohida fan sifatida emas, balki kasbiy mazmunni o'rganishda kommunikativ vosita sifatida qo'llashga asoslanadi. Coyle, Marsh va Hood tomonidan ishlab chiqilgan "4C" modeli - Content, Communication, Cognition va Culture komponentlari - texnikum talabalari uchun mazmunli, muloqotga yo'naltirilgan va chuqur o'ylashni talab qiladigan integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga hamda o'quvchilarda kundalik va kasbiy nutqni rivojlantirish, texnik terminlarni faol qo'llash, mavzuni chuqur anglash imkonini beradi. CLIL ayniqsa texnikum sharoitida qo'llanilganda ESP (English for specific purposes) darslari bilan uyg'unlashib, o'quvchilarning kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'zlashtirish sifatini oshiradi.

Materials and methods. Estoniyalik tadqiqotchi Peeter Mehisto CLIL metodikasining nazariy asoschilaridan biri hisoblanadi. U CLILni nafaqat til o'qitish, balki fanni puxta o'rgatishning ham samarali modeli sifatida baholaydi. Mehiston ing ta'kidlashicha, CLIL quyidagi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi: tilning ravon qo'llanilishi, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalar, hamkorlikda ishlash, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi va kognitiv faoliyatning faollashuvi. U CLIL metodining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun o'qituvchilar ikki sohani ham - tilni ham, fanni ham - chuqur bilishi, darsni integratsion yondashuv asosida loyihalashi zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, maktab rahbariyati, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik CLIL tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishida muhim omil ekanini qayd etadi.

CLILning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar mavjud. Diab, Abdel-Haq va Aly tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda CLIL metodida o'qitilgan o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalari, balki madaniy ong darajasi ham sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Tadqiqot natijalarida talabalarining chet tilini o'rganish jarayonida madaniy farqlarni anglash, madaniyatlararo muloqot qoidalarini o'zlashtirish va boshqa xalqlar hayoti haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi CLILning tabiiy natijasi sifatida qayd etilgan. Bu jarayon "til-madaniyat uyg'unligi" tamoyilining amaliy ko'rinishi bo'lib, tilni o'rganish madaniyatni idrok etish bilan chambarchas bog'liq ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Harrop tomonidan olib borilgan kuzatuvlar ham CLIL dasturi o'quvchilarda til bilishdan tashqari ko'plab qo'shimcha kompetensiyalarni rivojlantirishini ko'rsatgan. Unga ko'ra, CLIL tizimida ta'lim olgan talabalar an'anaviy metodda o'qigan tengdoshlariga nisbatan yuqori darajadagi muloqot ko'nikmasi, faol so'z boyligi, mustaqil fikrlash, o'z fikrini aniq ifodalash, jamoada ishlash qobiliyati va o'ziga bo'lgan ishonchga ega bo'ladi. Harrop CLILning motivatsion kuchini alohida ta'kidlab, o'quvchining o'quv jarayoniga faol qo'shilishi, o'z bilimini sinovdan o'tkazishi va real vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishi natijada tilga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirishini qayd etadi.

CLIL samaradorligini tasdiqlovchi keng qamrovli tadqiqotlardan yana biri ispan olimasi Maria Luisa Perez Canado tomonidan amalga oshirilgan. U Ispaniyaning 12 provinsiyasidagi 53 ta maktabda 2 024 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazilgan tajriba asosida CLIL va an'anaviy darslar samaradorligini solishtirgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, CLIL asosida ta'lim olgan o'quvchilar so'z boyligi, grammatik malakasi, yozma nutqi, tinglab tushunish, matn bilan ishlash ko'nikmalari bo'yicha an'anaviy o'quvchilardan sezilarli darajada yuqori natijaga ega bo'lgan. Perez Canado CLILning eng katta afzalligi sifatida "tilning tabiiy kontekstda qo'llanishi"ni ko'rsatadi, ya'ni o'quvchi tilni real faoliyatda qo'llaydi, bu esa tez va mustahkam o'zlashtirishga olib keladi.

Texnikum sharoitida CLIL asosidagi darslar o'quvchilarning kasbiy sohada uchraydigan terminlarni o'zlashtirishi, ingliz tilida og'zaki va yozma muloqot olib borishni mashq qilishi, real kasbiy vaziyatlarda tilni faol qo'llashi uchun qulay imkon yaratadi. Masalan, avtomexanika yo'nalishida "Engine Parts", "Diagnostics and Troubleshooting", "Safety Rules" kabi mavzular til va kasbiy bilimning birgalikda shakllanishiga xizmat qiladi. Elektronika, kompyuter texnologiyalari yoki qurilish yo'nalishlarida esa "Circuit Components", "Soldering Techniques", "Technical Drawings", "Measurement Tools" kabi mavzular kasbiy terminologiyani o'zlashtirish bilan birga amaliy topshiriqlarni ingliz tilida bajarishga yo'naltiriladi. Bunday jarayon o'quvchilarda motivatsiyaning ortishiga, kasbiy matnlar

bilan ishlash ko'nikmasining rivojlanishiga va ingliz tilini haqiqiy zarurat sifatida qabul qilishiga yordam beradi.

Result and discussions. CLIL texnologiyasining texnikumdagi samaradorligi bo'yicha amalga oshirilgan pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalangan ta'lim an'anaviy ingliz tili darslariga nisbatan ancha faol va amaliy yo'nalishga ega. Tekshirish natijalariga ko'ra, CLIL asosida o'qitilgan guruhda kasbiy terminlarni bilish ko'rsatkichi 37 foizdan 81 foizga oshgan, og'zaki muloqot ko'nikmasi esa 2,4 ball dan 4,1 ballga ko'tarilgan. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich ancha past bo'lib qoldi. Buning sababi - CLIL darslarida til real vaziyatlarda qo'llanadi, o'quvchi ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi, muammoli vaziyatlarga yechim topadi, kasbiy topshiriqlarni bajaradi va eng muhimi, ingliz tilidan amaliy vosita sifatida foydalanadi.

Integratsiyalangan darslar kasbiy fan o'qituvchilari va ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida samarali hamkorlikni talab qiladi. Ingliz tili o'qituvchisi til strukturasi, grammatikasi, kommunikativ vazifalarni tashkil etsa, kasbiy fan o'qituvchisi texnik mazmun, terminlar, laboratoriya ishlari va real kasbiy vaziyatlarni beradi. Bu o'qituvchilarning o'zaro metodik uyg'unligiga olib keladi. CLILning eng katta afzalliklaridan biri shundaki, u til o'qitiladigan amaliy muhitni yaratadi: talabalar ingliz tilini darsda aytilgan qoidaga moslab emas, balki real kasbiy faoliyat kontekstida qo'llashni o'rganadi.

CLIL texnikum sharoitiga to'liq joriy etilishi uchun bir qator metodik talablar mavjud. Avvalo, o'qituvchilarning CLIL metodologiyasini chuqur o'zlashtirishi, integratsiyalangan dars ssenariylarini ishlab chiqishi, differensial yondashuvdan foydalanishi va o'quvchilarning til darajasiga mos yengillashtirilgan (scaffolding) materiallar yaratishi zarur. Materiallar yetishmasligi, darsliklar mos emasligi yoki o'qituvchilarning CLIL bo'yicha malakasi yetarli emasligi ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi. Biroq bular bosqichma-bosqich hal qilinadigan metodik masalalar bo'lib, dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, CLILni joriy etish samaradorligi o'qituvchi kompetensiyasining oshishi bilan bevosita bog'liq.

CLIL texnologiyasi texnikumda ingliz tilini o'qitishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, talabalarining kasbiy ingliz tilini puxta o'zlashtirishiga, amaliy muloqot ko'nikmalarining shakllanishiga, tilni kasbiy jarayonlarda qo'llashga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, xorijiy texnik adabiyotlar bilan ishlash qobiliyati, zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtirish salohiyatini kuchaytiradi. CLIL texnikum ta'limi uchun nafaqat til o'rgatish modeli, balki o'quvchini global kasbiy muhitga tayyorlashning eng samarali pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

CLIL texnologiyasi qisqa muddatli faollik yoki vaqtincha qo'llanadigan metod emas, aksincha, uzoq yillar davomida izchil amalga oshiriladigan ta'lim tizimidir. Xalqaro tajribada ikki tillilikka asoslangan CLIL dasturlarida o'qitilgan o'quvchilar odatda 5-7 yildan so'ng akademik darajada xorijiy tilda bilim ko'rsatkichiga ega bo'lishlari ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Bu metodning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u xorijiy tilni majburiy o'rganishga emas, balki tabiiy ravishda tilni o'zlashtirishga asoslanadi. Ta'lim oluvchi tilni o'rganish uchun alohida vaqt ajratmaydi, u fanni o'rganish jarayonining o'zida, tabiiy muloqot va faoliyat davomida chet tilini egallaydi. Bunday jarayon psixolingvistik tadqiqotlarda "mazmun orqali tilni o'zlashtirish" deb yuritiladi.

Conclusion. Xalqaro tadqiqotlar CLIL texnologiyasi nafaqat xorijiy tilni samarali o'rgatishini, balki o'quvchilarning kognitiv, ijtimoiy, madaniy va

kasbiy kompetensiyalarini ham kompleks tarzda rivojlantirishini tasdiqlaydi. U uzun muddatli, izchil va chuqur o'zlashtirishga asoslangan tizim bo'lib, talabani global fikrlaydigan, madaniyatlararo muloqotga tayyor, tilni real hayotda qo'llay oladigan raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantiradi.

CLIL metodida o'quvchi nafaqat chet tilini va fanni o'rganadi, balki bu jarayon orqali boshqa mamlakat madaniyati, xalqaro qadriyatlar, ta'lim standartlari bilan tanishadi. Shu bilan birga, o'z mamlakati, tili va madaniyatini ham qayta baholaydi, taqqoslash orqali madaniyatlararo kompetensiyasi shakllanadi. Bu esa talabaning dunyoqarashi, tafakkuri, tolerantlik darajasi hamda innovatsion bilimlarni qabul qilish salohiyatining oshishiga olib keladi. Mazkur jarayon global fuqarolik, kommunikativ moslashuvchanlik va universal kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. CLIL texnologiyasi texnikum o'quvchilarida ingliz tili ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarni bir vaqtning o'zida rivojlantirishning samarali vositasidir. Integratsiyalangan darslar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni global me'yorlar bo'yicha muloqot qila oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

References:

- 1.Coyle, D., Marsh, D., & Hood, P. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
- 2.Marsh, D. (2002). CLIL/EMILE – The European dimension. Public Services Contract.
- 3.Richards, J. C., & Rodgers, T. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
- 4.Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes. Cambridge University Press.

**INNOVATIVE
ACADEMY**